



UDK: 37.02 (043.3)

Dilafroz SARIMSAKOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, PhD
E-mail: d.sarimsakova@gmail.com

NamDU professori Sh.Xo'jamberdiyeva taqrizi asosida

SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA MO'ljALLANGAN MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARI TAHLILI

Аннотация

Mazkur maqolada mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar mazmun va mohiyati tahlil qilinadi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari talabaning auditoriyadagi hamda auditoriyadan tashqari faoliyatini uyg'unlashtirib, interfaol usullar, elektron vositalar va loyihaviy ishlarga asoslanadi. Tadqiqotda loyiha ishlari, rolli o'yinlar ("Onlayn so'rov", "Radio muloqot", "Ijtimoiy so'rovnoma") hamda keys-stadi topshiriqlaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, mualliflik "Bekatlarmashinuv" texnologiyasi orqali talabalar mustaqil ishlash jarayonida tanqidiy va ijodiy fikrlash, hamkorlik va samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Sotsiolingvistik kompetensiya, mustaqil ta'lim, loyiha ishlari, keys-stadi, rol o'yinlari, interfaol texnologiyalar, madaniyatlararo muloqot.

ANALYSIS OF INDEPENDENT LEARNING TASKS FOR DEVELOPING SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE

Annotation

This article analyzes the content and essence of tasks designed to develop students' sociolinguistic competence in English within the framework of independent learning. Independent learning tasks integrate students' in-class and out-of-class activities and are based on interactive methods, digital tools, and project-based work. The study demonstrates the effectiveness of project tasks, role plays ("Online Survey," "Radio Conversation," "Social Survey"), and case study assignments in fostering competence development. In addition, the author's "Station Rotation" technology is shown to create opportunities for students to enhance critical and creative thinking, collaboration, and effective communication skills in the process of independent learning.

Key words: Sociolinguistic competence, independent learning, project work, case study, role plays, interactive technologies, intercultural communication.

АНАЛИЗ ЗАДАНИЙ ДЛЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ УЧЁБЫ, НАПРАВЛЕННЫХ НА РАЗВИТИЕ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Аннотация

В данной статье анализируются содержание и сущность заданий, направленных на развитие социолингвистической компетенции студентов по английскому языку в рамках самостоятельного обучения. Задания для самостоятельной учебы интегрируют аудиторную и внеаудиторную деятельность студентов и основываются на интерактивных методах, цифровых инструментах и проектной работе. В исследовании показана эффективность проектных заданий, ролевых игр («Онлайн-опрос», «Радио-беседа», «Социальный опрос») и кейс-стади при формировании компетенции. Кроме того, авторская технология «Смена станций» демонстрирует возможности для развития у студентов критического и творческого мышления, сотрудничества и эффективных коммуникативных навыков в процессе самостоятельной учебы.

Ключевые слова: Социолингвистическая компетенция, самостоятельное обучение, проектная работа, кейс-стади, ролевые игры, интерактивные технологии, межкультурная коммуникация.

Kirish. Ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishning fundamental asosi sotsiomadaniy nazariya bo'lib, ushbu nazariya til ijtimoiy muloqot jarayonida rivojlanadi degan g'oyani ilgari suradi [5]. Til o'rganishda ijtimoiy kontekst katta ahamiyat ega bo'lib, ma'lum bir jamiyat va madaniyat muloqot mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Talabalarning kommunikativ kompetensiyasini mustaqil ta'lim jarayonida shakllantirishning metodik tizimi mavjud bo'lib, o'qituvchi uning mazmunini namunaviy fan dasturiga muvofiq ishchi-o'quv dasturida aks ettiradi. Bu metodik tizimning tarkibiga o'rganilayotgan chet tili fanining mazmuni, modulning asosiy nazariy qismi (amaliy mashg'ulotlar), amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar),

ta'lim texnologiyalari va metodlari asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topadi [3].

Adabiyotlar tahlili. Auditoriyada o'qituvchi-talaba hamkorligida olib boriladigan mustaqil ta'lim fan o'qituvchisining ishchi-o'quv dasturida ko'rsatilgan mavzular doirasida ta'lim texnologiyalari va metodlaridan samarali foydalangan holda talabalarning kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratiladi. Mazkur jarayonda talabalardan interfaol usullar, elektron ta'lim vositalaridan keng va samarali foydalanib mustaqil ta'lim olishga rag'batlantiriladi. Talabalardan fan bo'yicha mustaqil o'rgangan bilimlarini auditoriyada turli xil interaktiv uslublar va elektron o'quv vositalari orqali namoyish qila olishlari va boshqalarga o'rgata olishlarini taqozo etadi.

Auditoriyadan tashqarida o'qituvchi tomonidan nazorat (monitoring) qilinadigan mustaqil ish mavzulari talabalarning


auditoriyada olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida talabalarga mustaqil bilim olishlariga ongli ravishda yo'naltiriladi. Shuningdek, kafedra mutaxassislari tomonidan har bir mavzu bo'yicha talabaniq mustaqil o'qib o'rganishiga doir vazifa va topshiriqlar ishlab chiqilib, ularni bajarish uchun ko'rsatmalar va misollar beriladi. Ayni vaqtda OTMLarda ta'limning barcha bosqichlarida auditoriyadagi mustaqil ta'lim jarayonida "Aqliy hujum", "Keys-stadi", "Venn diagrammasi", "Klaster", "Blis-so'rov", "Insert", "Ijodiy ish", "Suhbat", "BBB" kabi interfaol texnologiyalar keng qo'llanilmoqda [4]. Talabalarining ingliz tilida sotsiologiyistik kompetensiyasini mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirish maqsadida interfaol texnologiyalarning deyarli barchasidan foydalanish mumkin. Quyida tadqiqot modullari sifatida tanlangan "Til ko'nikmalari integratsiyasi", "Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish" va "Mamlakatshunoslik" fanlarining amaliy mashg'ulotlarida talabalarining sotsiologiyistik kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan mustaqil ta'lim topshiriqlarining mazmun va mohiyatini metodik jihatdan tahlil qilishni vazifa sifatida belgilab oldik.

Tahlillar va natijalar. "Til ko'nikmalari integratsiyasi" moduli "loyihaga asoslangan o'qitish" metodikasi asosida olib boriladi. Har bir mavzu bo'yicha talabalar kichik guruhlariga bo'lingan holda mavzu doirasida tanlangan loyihalari ustida mustaqil faoliyat olib boradilar. Talabalarining sotsiologiyistik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida mantiqiy xarakterdagi muhokama qilinadigan loyiha ishlarini tanlash, tahlil qilish va baholash mazmuniga tahlil qilamiz.

1-loyiha. O'rganilayotgan chet tilini xorijiy til sifatida o'rganuvchilarning maktab darsliklaridan birini tanlab, chet tilini ona tili sifatida o'rganuvchilarning ingliz tili darsliklarini bir-biriga solishtirgan holda tahliliy mazmunda loyiha ishi tayyorlash va taqdimot qilish;

2-loyiha. O'zi yashayotgan hudud aholisining kundalik hayotida "rahmat" so'zining qanday ijtimoiy kontekstlarda ishlatilishini kuzatish va ingliz tili kishilarning ijtimoiy hayotida ishlatilishi bo'yicha olgan bilimi bilan taqqoslab kichik sotsiologiyistik tadqiqot natijasini taqdimot qilish.

Ushbu loyiha ishlari talabalarining juftlikda (talaba – talaba) yoki kichik guruhlarda (talaba – talabalar guruhi) va jamoada (talaba – talabalar jamoasi) hamkorlikda mustaqil ishlashni pirovardida muloqot malakalarini rivojlantirishni rag'batlantiradi. Loyiha ishlari dastlab auditoriyada amalga oshiriladi va quyidagi bosqichlarni qamrab oladi: loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil qilish va rejalashtirish. Loyihaga kirishish bosqichida talabalar berilgan muammoni tushunishi, va uning yechimini dolzarb va muhimligini anglashi, loyihaning maqsadi va natijalarini taqdim etish shakllarini boshqa ishtirokchilar hamda o'qituvchi hamkorligida belgilab olishadi. Loyihani bajarish bosqichida talabalar o'zlarining vazifalariga muvofiq faol va mustaqil ishlaydilar. Yakuniy bosqich auditoriyada tashkil qilinib, loyiha taqdimoti va natijalar baholanadi. Tajriba-sinov jarayonida talabalarining mustaqil ta'lim jarayonida sotsiologiyistik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan bir nechta loyiha ishlarini ishlab chiqdik va quyidagi bosqichlarda amalga oshirdik: (1-rasmga qarang).



1-rasm. Loyihaga asoslangan mustaqil ishni tashkil etish bosqichlari

Talabalar loyihaga asoslangan mustaqil ish jarayonida madaniyatni aks ettiruvchi manbalarni to'plash, tahlil qilish, o'z madaniyati bilan taqqoslash, umumlashtirish, olingan natijalarni muhokama qilishlari natijasida ularda sotsiologiyistik kompetensiyani egallashga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, tadqiqotni olib borishda, "Onlayn so'rov", "Radio muloqot", "Ijtimoiy so'rovnoma" kabi rolli o'yin texnologiyalariga asoslandi. Quyida ushbu rolli texnologiyalarni sotsiologiyistik kompetensiyani rivojlantirishdagi mohiyati xususida so'z yuritiladi.

"Onlayn so'rov" talabalarni mobil telefonlarning funksional imkoniyatlaridan foydalangan holda auditoriyada ingliz tilida jonli muloqot jarayonida (apologize, request, compliment, condolence, refusal) murojaat shakllaridan to'g'ri, aniq va ravon foydalanishga o'rgatish, jonli muloqotga erkin kirishish, muloqot jarayonidagi hayajon, qo'rquv, fikrni to'la bayon eta olmaslik kabi psixologiyistik qiyinchiliklarni bartaraf etishga mo'ljallangan rolli o'yin texnologiyasi hisoblanadi. Misol uchun, talabalar juftlikda tez yordam xizmati xodimi va bemor rollarini ijro etadilar. Onlayn muloqot jarayonida bemor talaba va tez yordam xizmati xodimi tomonidan ishlatilgan so'z

va iboralarni "Pardon", "I am sorry", (kechirasiz), "How can I help you?" (Sizga qanday yordam bera olaman) kabi muloqot mazmuniga mos va to'g'ri ishlatilishi boshqa talabalar tomonidan (peer feedback) va o'qituvchi tomonidan baholanadi va tavsiyalar beriladi.

"Radio muloqot" rolli o'yin texnologiyasi talabalar sotsiologiyistik kompetensiyasini auditoriyada real muloqot jarayonida (til) etiketi qoidalariga rioya qilgan holda rivojlantiradi. Radio muloqot – rolli o'yin texnologiyasi bo'lib, bir talaba radio eshittirish boshlovchisi sifatida, boshqa bir talaba ishtirokchi sifatida o'zaro muloqot olib boradilar. Suhbat jarayonida talabalarining radio muloqot mavzusiga mos salomlashish, savol so'rash, yordam so'rash kabi vaziyatlarda murojaat shakllaridan to'g'ri foydalanishi, masalan, "Should you please tell me?" (menga ayta olasizmi?), "Please" (iltimos), "Thank you" (rahmat), qo'pol, kinoya, kesatiq ma'nolarini bildiruvchi so'zlarni ishlatmasligi muhim hisoblanadi. Talabalar tomonidan ijro etilgan rollar, suhbat davomida foydalanilgan so'z va iboralar boshqa talabalar tomonidan (peer feedback) baholanadi.

"Ijtimoiy so'rovnoma" talabalariga muloqotning nozik jihatlarini salomlashish, hamfikir bo'lish, izohlash, mustaqil o'z

fikrini bildirish, noverbal muloqotning yuz ifodasi, qo'l va gavda harakatlarini turli diskursiv vaziyatlarida to'g'ri qo'llashni kabi ijtimoiy-madaniy normalardan foydalanishni rivojlantiradi. Masalan, talaba o'zi tahsil olayotgan fakultetda xorijiy davlatlarda turli maqsadlarda malaka oshirgan professor-o'qituvchilardan madaniyatlararo tafovutlarni keltirib chiqaradigan omillar mavzusida intervyu yoki yozma ijtimoiy so'rovnoma oladi va natijalarini auditoriyada taqdimot qiladi (10-ilovaga qarang).

“Onlayn so'rov”, “Radio muloqot”, “Ijtimoiy so'rovnoma” kabi rolli o'yin texnologiyalarining yana bir I-jadval

Rasmiy va norasmiy muloqotda qo'llaniladigan iboralar

№	Informal expressions (norasmiy)	Formal expressions (rasmiy)
1.	I am glad to meet you...	It is pleasure to meet you..
2.	I hate to tell you that...	I regret to inform you that
3.	I am sorry for...	Please, accept my apologies for...
4.	Thank you for help..	I appreciate your assistance
5.	Tons of thanks...	I would like to express my gratitude for...
6.	I am late, sorry...	Excuse me for being late.
7.	As soon as you get there...	Apon your arrival...
8.	I think, we have to meet...	Would you be available at....
9.	As much as you can...	At your earliest conviniences....
10.	Say hello to John from me...	Please, remember me to John...

Tadqiqotni jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan mustaqil ta'lim topshiriqlariga alohida e'tibor qarotildi. “Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqotni shakllantirish” modulini o'qitishda talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga mo'ljallangan mustaqil ta'lim topshiriqlari sifatida keys stadilardan keng foydalandik. Keys stadilar talabalarga chet el madaniyatiga oid tafovutlarni kognitiv tuzatish, xatti-harakatlarni taqqoslash orqali o'rganishga yordam beradi [1]. Mazkur jarayonda o'qituvchi talabalarga muammoning hal qilish zarurligini anglashi, muammoli vaziyatni muhokama qilishi, muammoning shakllanishi, uni hal qilish yo'llarini qidirish kabi jarayonlarda o'zaro hamkorlik qiladi va o'quv materiali bilan ishlashning barcha bosqichlarida yordam ko'rsatadi. Talabalar taklif etilgan muammoni anglab, tahlil qiladilar, kerakli ma'lumotlarni tahlil asosida ajratib olib, uni hal etish uchun bahs yuritadilar. Tadqiqot jarayonida tavsifiy (descriptive, illustrative) va tushuntirish (analytical, explanatory) xususiyatlarini birlashtiruvchi keys stadilardan foydalandik:

1-keys stadi: Compliments

Read the situation below, and choose the best answers to the questions. Sometimes more than one answer is possible.

Linda, an American teacher in adult class in the US, was speaking to Usa, one of her Thai students. She said. “Usa, I am very happy with your work. Your English is really improving.” Usa looked down and said, “Oh, no. I am not a good student. My English is not very good.” Linda really thought that Usa was making progress, and she wanted her to know it. She said to Usa, “But you are a good student, and you are making excellent progress. You should be proud of your work.” Usa responded to this remark saying, “No, no. You are a very good teacher, but I am not a very good student.” Linda didn't know what to say, so she decided not to give Usa any more complements.

Why did Usa look down when the teacher complemented her?

She was ashamed of her work.

She was embarrassed by the teacher's compliment.

She was trying to show respect for the teacher.

She did not like the teacher.

amaliy ahamiyati talabalar juftliklarda o'zlari tomonidan norasmiy muloqotda qo'llanilgan iboralarning rasmiy muloqotdagi muqobillarini topishga undash imkoniyatini yaratadi. Auditoriyadagi mustaqil ta'lim topshiriqlarining birida shunday yo'l tutildi. Unga ko'ra, talabalar 2 guruhga bo'linib, guruhlar bir-birlari tomonidan tavsifa etilgan iboralarning rasmiy muloqotdagi muqobillarini topishga oid mustaqil topshiriqni bajardi va natija quyidagicha bo'ldi (1-jadvalga qarang):

Why did Linda decide not to give Usa any more compliments?

She decided that Usa really was not a good student.

Usa's behaviou was disrespectful.

Usa did not seem to be pleased with the complement.

She expected Usa to say something like “Thank you”.

Questions:

What cultural values were involved in this situation?

Who was at fault?

What would you do in this situation?

2-keys stadi: Requests

Discuss the case study in pairs. The points below may guide you.

Elise, an American teacher who came to teach English at Namangan State University as an English Language Fellow. Besides conducting practical classes for students and professional development trainings for teachers at university, she was affiliated to teach English at one of the specialized language schools named after Ibrat. While she was returning home after classes, one of the English teachers whose name was Nozima followed her and asked 'Elise, Aren't you tired?', 'Aren't you hungry?' Elise wondered and asked Nozima 'Do I look like an old person really'. Nozima was confused why Elise misunderstood her. (Narrated by Nozima Mamajonova)

-What is the problem in the communication?

-How was English language fellow's reaction to 'Aren't you tired?'

-Why was the communication failed between them?

Aytish mumkinki, keyslar talabalarning o'zi yashayotgan mamlakatning urf-odatları, qadriyatları, an'analari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish layoqatini rivojlantiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim jarayonida talabalarning ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ularning nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, amaliy muloqot ko'nikmalarini ham takomillashtiradi. Loyiha ishlari, keys-stadilar va rolli o'yinlar kabi interfaol usullar talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rag'batlantiradi, hamkorlikda ishlash va turli muloqot vaziyatlariga moslashish qobiliyatini oshiradi. Shu bilan birga, mualliflik “Bekatlari

almashinuvi” texnologiyasi talabalarda XXI asr ko‘nikmalari — tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, hamkorlik va samarali muloqot (4C)ni shakllantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Umuman olganda, mustaqil ta’lim topshiriqlarini samarali rejalashtirish va ularda interfaol texnologiyalardan foydalanish

talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishning muhim metodik vositasi hisoblanadi. Bu esa oliy ta’lim jarayonida xorijiy tilni o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bobrikova O.S, Ivanova V.I. (2016), Sociolinguistic competence in the professional activity of an English teacher // Yaroslav ped. Bulletin. № 3.155-159.
2. Muhamadjonovna, S. D. (2020). The key concepts of forming sociolinguistic competence of future English language specialists. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(5), 118-121.
3. Muhamadjonovna, S. D. (2020). A Set Of Methodological Tools For The Formation Of Sociolinguistic Competence Of Future English Teachers. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2(12), 298-302.
4. Riskulova Kamola Djummayevna Didakticheskiye usloviya formirovaniya sotsiolingvisticheskoy kompetensii budущix uchiteley inostrannogo yazyka // Vestnik nauki i obrazovaniya. 2018. №4 (40).
5. Sarimsakova Dilafuz Muhamadjonovna. (2020), The key concepts of forming sociolinguistic competence of future English language specialists; Asian journal of multidimensional research doi: 10.5958/2278-4853.2020.00157.3